OGOHLANTIRISH!

Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarmaslik:
– umumiy qarzdorlik miqdorining oshishiga;
– qarzni undirish bo‘yicha majburiy ijro choralarining ko‘rilishiga;
– qarz bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun nomingizdagi mol-mulkka undiruv qaratilishiga, agarda mol-mulk sotilgandan tushgan mablag‘ qarzni to‘liq qoplashga yetmasa, qolgan qarzdorlik zimmangizda saqlanib qolishiga;
– undiruv uchinchi shaxs tomonidan garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratilishiga yoki qarzdorlikni qoplash majburiyatining kafil zimmasiga yuklatilishiga;
– kafil yoki garovga qo‘yuvchi tomonidan qoplangan qarzdorlik summasining keyinchalik sizdan undirilishiga;
– hisobvaraqlaringizdagi mablag‘lar xatlanishiga;
– sudning yoki davlat ijrochisining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqingiz vaqtincha cheklanishiga;
– kredit tarixingizga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kelajakda kredit olish imkoniyatingizni cheklanishiga olib kelishi mumkin.

“InFinBank” AJ mobil ilovasidan foydalangan holda onlayn tartibda muddatli to‘lovga asoslangan “Infin Smart” mikroqarz kartalarini taqdim etish to‘g‘risida ommaviy oferta

Mazkur Oferta bir tomondan “Invest Finance Bank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) va boshqa tomondan Masofaviy bank xizmati (MBX) orqali qarz oluvchi jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda Qarz oluvchi (karta egasi) deb yuritiladi) o‘rtasida shartnoma tuzish maqsadida ishlab chiqilgan.

Qarz limiti yangi chiqarilgan muddatli to‘lovga asoslangan mikroqarz kartalari (keying o’rinlarda “Infin Smart” kartasi) orqali taqdim etiladi.

“Infin Smart” kartasi O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi va daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga beriladi.

Ommaviy ofertani Face ID vositasida tasdiqlash orqali Qarz oluvchi (karta egasi) “Infin Smart” kartasi shartlariga o‘z roziligini bildiradi, ya’ni “InFinBank” mobil ilovasidan foydalangan holda “Infin Smart” kartasini onlayn tarzda taqdim etish to‘g‘risidagi ushbu Ofertani qabul qiladi. Mazkur rozilik Bank uchun potensial Qarz oluvchi (karta egasi)ning arizasini ko‘rib chiqish, uning shaxsiy ma’lumotlarini kredit byurolari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tashqi axborot manbalardan olish, qayta ishlash va o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bank Qarz oluvchi (karta egasi)ga nisbatan Bankning amaldagi ichki tartib-taomillari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq tekshiruvlarni amalga oshiradi. Mazkur tekshiruvlardan muvaffaqiyatli o‘tgan Qarz oluvchi (karta egasi)ga uning skoring bali va qarz yukiga muvofiq kredit limiti belgilanadi hamda bu haqda Qarz oluvchi (karta egasi)ning telefon raqamiga SMS-xabar va Bankning mobil ilovasiga PUSH-xabar yuboriladi.

“Infin Smart” kartasining individual limitlari Qarz oluvchi (karta egasi) har safar qarz olayotganida joriy davrdagi tahlil asosida alohida belgilanadi. Qarz oluvchi (karta egasi) Bank tomonidan mobil ilova orqali yuborilgan “Infin Smart” kartasining individual shartlari bilan tanishib, ularga rozilik bildirganligini Face ID orqali tasdiqlaydi yoki ushbu arizani rad etadi.

Bank tomonidan taqdim qilingan “Infin Smart” kartasi limiti Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan 60 (oltmish) daqiqa ichida qabul qilinmagan taqdirda va taklif yuborilgandan keyin 60 (oltmish) daqiqadan so’ng qabul qilinsa, Bank tomonidan takroriy tekshiruvlar amalga oshiriladi. Agar takroriy tekshiruv jarayonida qarz yukining oshishi, muddati o‘tgan qarzdorliklarning yuzaga kelishi yoki boshqa banklarga yuborilgan yangi arizalarning mavjudligi aniqlansa, Bank arizani rad etadi.

Potensial Qarz oluvchi (karta egasi) Bank tomonidan mijozning to‘lovga layoqatliligini baholashda foydalaniladigan skoring modeli tijorat siri va maxfiy ekanligini ofertaning shartlarini tasdiqlash orqali tan oladi.

Bankning skoring modelidan foydalangan holda potensial Qarz oluvchining (karta egasining) to‘lov qobiliyatini baholash jarayonida Bank potensial Qarz oluvchi (karta egasi) to‘g‘risidagi ochiq bo‘lgan har qanday ma’lumotlardan, shuningdek tashqi manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanishga haqli.

Quyidagi holatlarda Bank potensial Qarz oluvchiga (karta egasiga) mikro qarz ajratishni rad etadi, bunda Qarz oluvchi (karta egasi) rad etishning aniq sabablarini Bankning jismoniy shaxslarga masofadan xizmat ko‘rsatish markazining qisqa raqami — 1214 orqali bilib olishi mumkin:

- Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar yoki rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlil bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tilmaganligi;
- Skoring baholash jarayonida yetarli miqdorda ball to‘planmagan taqdirda;
- Kredit tarixining qoniqarsizligi;
- Qarz yuki ko‘rsatkichi bo‘yicha belgilangan me’yor talablariga javob bermaslik.

Qarz oluvchi (karta egasi) Bank tomonidan mikro qarz berishni rad etish masalasida Bankka e’tiroz bildirish huquqiga ega. Bunday hollarda Bank Qarz oluvchi (karta egasi)ga rad etishning aniq sabablarini ko‘rsatgan holda tushuntirish beradi.

Mazkur oferta Bank tomonidan bekor qilingan taqdirda, bu haqda Bankning rasmiy veb-sayti www.infinbank.com orqali ma’lum qilinadi.

Mazkur ofertaning bekor qilinganligi to‘g‘risidagi xabarnoma Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan kundan boshlab 10 (o‘n) kun o‘tgach, mazkur Oferta bekor qilingan hisoblanadi.

Ommaviy oferta bekor qilingan kundan oldin berilgan arizalar, ushbu shartnomalarda nazarda tutilgan shartlar saqlangan holda, 20 kun davomida o‘z kuchini yo‘qotmaydi.

Mazkur oferta shartnomaning quyidagi muhim shartlarini o‘z ichiga oladi:

“InFinBank” AJ mobil ilovasidan foydalangan holda onlayn tartibda “Infin Smart” kartalarini taqdim etish to‘g‘risidagi shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq tuziladi hamda jismoniy shaxs ushbu Shartnomada nazarda tutilgan barcha shartlarni, mazkur ofertaning barcha shartlarini hech qanday istisno va cheklovlarsiz so‘zsiz qabul qilganligini anglatadigan harakatlarni amalga oshirgan, ya’ni oferta bilan tanishib chiqib “tasdiqlash” tugmasi bosilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

SHARTLAR VA TA’RIFLAR

Ushbu shartnomaga muvofiq, quyida keltirilgan atamalar va tushunchalar quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi:

“InFinBank” mobil ilovasi — masofadan onlayn tartibda bank operatsiyalarini amalga oshirish, shaxsiy hisobvaraqlarni nazorat qilish va boshqarish, shuningdek istalgan joyda naqd puldan foydalanmasdan hisobvaraqlar va kartalarda mavjud bo‘lgan pul mablag‘larini tasarruf etish imkonini beruvchi bank ilovasi hisoblanadi.

Avtomatik so‘ndirish — Qarz oluvchi (karta egasi)ning barcha kartalari (ijtimoiy karta bundan mustasno) hamda shaxsiy depozit hisobvarag‘idan qarzni so‘ndirish maqsadida pul mablag‘larini avtomatik tarzda yechib olish jarayonidir. Avtomatik so‘ndirish jarayoni Bankda belgilangan vaqt oralig‘ida har kuni bir necha marotaba amalga oshiriladi. Muddati o‘tgan to‘lovlarni (qarzni) so‘ndirish uchun yetarli miqdorda mablag‘ mavjud bo‘lmagan taqdirda, karta hisobi va/yoki hisobvaraqni yetarli mablag‘lar bilan to‘ldirish talab etiladi.

Avtomatik so‘ndirish kartasi — qarzni so‘ndirish maqsadida pul mablag‘larini avtomatik ravishda yechib olish imkonini beruvchi Qarz oluvchi (karta egasi)ning “InFinBank” AJ hamda boshqa banklarda ochilgan barcha turdagi bank kartalari va hisobvaraqlari.

BANK — “InFinBank” AJ, Amaliyot boshqarmasi, uning filiallari hamda Bank xizmatlari markazlari.

Limit — Qarz oluvchi (karta egasi) foydalanishi uchun Bank tomonidan taqdim etilgan, qayta tiklanadigan qarzning maksimal miqdori.

“InfinSmart” kartasi — Visa xalqaro to‘lov tizimida chiqarilgan, Qarz oluvchi (Karta egasi) tomonidan limit doirasida to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan bank kartasi.

Oylik to‘lov — har oyning birinchi sanasida Qarz oluvchi (karta egasi)ga to‘lov jadvaliga muvofiq joriy va oldingi oylarda ishlatilgan mablag‘lar uchun hisoblanadigan asosiy qarz va komissiyani o‘z ichiga olgan to‘lov.

Sug‘urtalovchi — tegishli turdagi sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan hamda qarz qaytarilmagan taqdirda sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta summasini to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga olgan tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs.

Texnik overdraft (qarz limitidan ortiqcha bo‘lgan qarzdorlik) — Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan tovarlar/xizmatlar uchun to‘lov miqdori talabnoma shaklida qo‘yilganda, talabnoma miqdorining qarz limitidan oshgan qismi.

Qarz oluvchi (karta egasi)ning shaxsga doir ma’lumotlari — Qarz oluvchi (karta egasi)ga oid bo‘lgan yoki uni aniqlash imkonini beradigan elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy axborot vositalarida qayd etilgan ma’lumotlar.

Qarz oluvchi (karta egasi)ning shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish — Qarz oluvchi (karta egasi)ning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, o‘tkazish, shaxssizlantirish va yo‘q qilish bo‘yicha bir yoki bir qator tadbirlarni amalga oshirish.

Qarz oluvchi (karta egasi) — O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi va daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar.

Qarz bo‘yicha ta’minot — qarz qaytmaslik xataridan sug‘urta polisi, hamda Qarz oluvchi (Karta egasi)ning o‘lim xavfini sug‘urtalash polisi.

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat — O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi, O‘zbekiston Respublikasi harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan berilgan harbiy xizmatchilarning shaxsiy

guvohnomalari yoki harbiy biletlari (harbiy xizmatga majbur bo‘lgan fuqarolarning harbiy biletlari bundan mustasno), chet el fuqarosining O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi/ID-kartasi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi/ID-kartasi.

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) — Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofadan turib yuboriladigan elektron farmoyishlar asosida taqdim etiladigan Bankning kompleks xizmatlari.

PUSH-xabar — Bank tomonidan “InFinBank” mobil ilovasi orqali Qarz oluvchi (karta egasi)ga yuboriladigan axborot xabari.

SMS-xabar — bu "InFinBank" mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan Qarz oluvchi (Karta egasi) ning mobil telefon raqamiga Bank tomonidan yuboriladigan, ushbu Shartnomani bajarish bilan bog‘liq bildirishnomalar, axborot yoki xizmat xabarlarini o‘z ichiga olgan qisqa matnli xabar.

1. SHARTNOMANING MAVZUSI

1.1. Mazkur Shartnoma Tomonlar o‘rtasida Bank tomonidan Qarz oluvchi (karta egasi)ga “Infin Smart” kartasini taqdim etish bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Mazkur shartnoma bo‘yicha qarz limiti individual tartibda belgilanadi.

1.3. Bank o‘z xohishiga muvofiq quyidagi hollarda qarz limitini o‘zgartirishi mumkin:

1.3.1. Agar Qarz oluvchi (Karta egasi) qarz limitidan foydalanish davrida oxirgi 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida karta limitidan foydalanmasa (Bank tomonidan faqat abonent va komissiya to‘lovlari yechish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar kartadan foydalanish hisoblanmaydi), unda qarz limiti 0 (nol) ga aylantirilishi mumkin;
1.3.2. Karta tayyorlanganligi haqida Qarz oluvchi (Karta egasi)ga SMS-xabar, PUSH-xabar yoki boshqa elektron aloqa vositalari orqali xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kuni mobaynida Qarz oluvchi (Karta egasi) kartani qabul qilib olmagan taqdirda, Bank qarz limitini faollashtirmaslik, avval faollashtirilgan bo‘lsa — uni bekor qilish, mazkur Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish hamda qarz kartasini Bankning ichki tartib-qoidalariga muvofiq yo‘q qilish huquqiga ega. Bunga Qarz oluvchi (Karta egasi) ushbu ofertani tasdiqlash orqali o‘z roziligini tasdiqlaydi.

1.4. Qarz oluvchi (Karta egasi) yangi karta olish uchun Bankka qayta murojaat qilish huquqiga ega. Bunda Bank yangi murojaatni umumiy asoslarda ko‘rib chiqadi hamda skoring bahosi, kredit tarixi, qarz yuki, komplaens va sanksion tekshiruvlar natijalaridan kelib chiqib qarz limitini qayta belgilash huquqiga ega.

1.5. Qarz oluvchi (karta egasi)ga ajratilishi mumkin bo‘lgan qarzning maksimal miqdori 100 000 000,00 (bir yuz million) so‘mni tashkil etadi.

1.6. Qarz bo‘yicha olingan qarz summasining yiliga 1/4 ulushi miqdorida yillik komissiya belgilanadi. Komissiya “Infin Smart” kartasidan tovar va xizmatlar sotib olish uchun foydalanilgan har bir summa bo‘yicha alohida hisoblanadi va mazkur Shartnomada belgilangan tartibda undiriladi.

Hisoblangan komissiya miqdori qarz mablag‘lari muddatidan oldin qisman yoki to‘liq qaytarilgan taqdirda qayta hisob-kitob qilinmaydi, ya’ni dastlabki hisoblangan komissiya to‘liq miqdorda undiriladi. Ushbu Shartnomani akseptlash orqali Qarz oluvchi (Karta egasi) qarz olishdan oldin komissiya miqdori, uni hisoblash tartibi va undirish shartlari bilan tanishganligini, qarz qisman yoki to‘liq muddatidan oldin to‘langan taqdirda komissiyaning miqdori kamaytirilmasligini tushunishini tasdiqlaydi va ko‘rsatilgan shartlarga so‘zsiz roziligini bildiradi.

Qarz mablag‘lari tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish uchun taqdim etiladi. Har bir xarid miqdori 10 000 (o‘n ming) so‘mdan kam bo‘lmasligi lozim.

1.7. “Infin Smart” kartasidan foydalangan holda tovarlar va xizmatlarni mamlakat ichida hamda xorijda sotib olish mumkin.

1.8. “Infin Smart” kartasi orqali quyidagi amaliyotlarni amalga oshirish mumkin emas va taqiqlanadi:

- kartadan kartaga pul o‘tkazish;
- bankomat va kassalardan naqd pul yechish;
- mobil ilova orqali konvertatsiyani amalga oshirish;
- mobil ilova orqali elektron hamyonni to‘ldirish;
- mobil ilova orqali omonat hisobvarag‘ini to‘ldirish;
- mobil ilova orqali VISA Direct xizmati orqali pul o‘tkazish;
- mobil ilova orqali qarzlarni so‘ndirish;
- mobil ilova orqali kommunal to’lovlarni amalga oshirish;
- mobil ilova orqali rekvizit bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish;
- kriptovalyuta sotib olish;
- inson sog‘lig‘iga, ma’naviyatiga yoki ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish.

1.9. “Infin Smart” kartasidan foydalanilgan har bir miqdor va unga belgilangan komissiya bilan birgalikda teng 24 (yigirma to’rt) oyga bo‘lish orqali Bankka qaytariladi. Joriy oyda alohida sarflangan barcha xarajatlar oy yakuni bo‘yicha jamlangan holda to‘lov uchun yagona miqdor sifatida aniqlanadi.

1.10. “Infin Smart” kartasining yangilanadigan limitidan foydalanish davri 36 (o’ttiz olti) oyni tashkil qiladi.

1.11. Qarz ta’minoti qarz qaytmaslik xataridan sug‘urta polisi, hamda Qarz oluvchi (Karta egasi)ning o‘lim xavfini sug‘urtalash polisi hisoblanadi.

1.12. “Infin Smart” kartasi yangi karta ochish orqali rasmiylashtiriladi. Kartani qabul qilish chog‘ida Qarz oluvchi (karta egasi) o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etishi lozim.

1.13. “Infin Smart” kartasining amal qilish muddati kartaning old qismida ko‘rsatilgan. Bank Qarz oluvchi (karta egasi) uchun 60 (oltmish) oy davomida amal qiladigan kartani chiqaradi.

1.14. Qarz oluvchi (karta egasi) “Infin Smart” kartasidan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda foydalanadi hamda to‘langan miqdorlar oyma-oy bo‘lib-bo‘lib qaytariladi.

1.15. Mazkur shartnoma bo‘yicha barcha hisob-kitoblar so‘mda amalga oshiriladi. Xorijda foydalanilganda, operatsiya summasi foydalanilayotgan mamlakat valyutasiga VISA’ning joriy davrdagi kursi bo‘yicha avtomatik tarzda konversiya qilinadi.

1.16. Qarz oluvchi (karta egasi) Bankka tashrif buyurish orqali yoki kuryerlik xizmati orqali “Infin Smart” kartasini olgandan so‘ng, karta faollashtiriladi.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Bank tomonidan Qarz oluvchi (karta egasi)ga qaytarishlilik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik va muddatlilik tamoyillariga rioya etgan holda, limiti qayta tiklanadigan “Infin Smart” kartasini chiqarish orqali qayta tiklanadigan limit taqdim etiladi.

2.2. Qarzning yangilanadigan limitidan foydalanishga dastlabki 36 (o’ttiz olti) oy davomida ruxsat beriladi. Qarzdan foydalanish davrining 37-oyidan boshlab yangilanadigan limitdan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmaydi va qarzdorlik oyma-oy so‘ndirilgan holda to‘liq qaytariladi.

2.3. “Infin Smart” kartasi bo‘yicha qarzni so‘ndirish uchun to‘lovlar mazkur shartnoma tuzilgan kundan boshlab quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Oylik to‘lov har oyning 1-sanasida to‘lov uchun qo‘yiladi. Har oyning 1-sanasidan 5-sanasiga qadar ixtiyoriy so‘ndirishni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Oyning 1–5 sanalari oralig‘ida Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan ixtiyoriy to‘lov amalga oshirilmagan taqdirda, 5-sanada avtomatik tartibda so‘ndirish orqali undiriladi. Qarz oluvchi (karta egasi)ning hisobvaraqlarida pul mablag‘lari mavjud bo‘lmagan taqdirda, ushbu to‘lov muddati o‘tgan hisoblanadi va tegishli hisobvaraqlarga o‘tkaziladi hamda shu kundan e’tiboran to‘liq so‘ndirilgunga qadar bir kunda bir necha marotaba avtomatik ravishda so‘ndirish amalga oshirib boriladi. Muddati o‘tgan qarzdorlik yopilmagan taqdirda, keyingi oyning 5-sanasida “Infin Smart” kartasi bloklanadi;
- Oylik to‘lov 90 (to‘qson) kalendar kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan taqdirda, “Infin Smart” kartasi to‘liq muddatga, ya’ni “Infin Smart” kartasining oxirgi amal qilish muddatiga qadar bloklanadi va karta bo‘yicha faqat qarzni so‘ndirish uchun kartani to‘ldirish amaliyotini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

2.4. Qarz oluvchi (karta egasi) quyidagilarni tan oladi va rozilik beradi:

- Sug‘urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar bo‘lgan Qarz oluvchi (karta egasi)ga nisbatan Bankning talab qilish huquqi to‘langan miqdor doirasida sug‘urta tovonini to‘lagan Sug‘urtalovchiga o‘tadi;
- Bank Sug‘urtalovchiga barcha hujjatlar va dalillarni topshiradi hamda Sug‘urtalovchiga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar (bank siriga oid ma’lumotlar, shaxsiy ma’lumotlar va hokazo) ni taqdim etadi.

2.5. “Infin Smart” kartasi orqali amalga oshirilgan to‘lovlar bo‘yicha to‘lov rad etilgan taqdirda, kartaga qaytgan pul mablag‘lari kartani to‘ldirish jarayoni kabi aks ettiriladi. Bunda hisoblangan komissiya qayta hisoblanmaydi va to‘liq miqdorda undiriladi.

2.6. Qarz oluvchi (karta egasi) mazkur shartnomani tuzish va bajarish maqsadida Bank tomonidan kredit byurolarida saqlanayotgan Qarz oluvchi (karta egasi)ning kredit tarixiga kiruvchi axborotni olishga, shuningdek kredit byurolariga Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan qarzni qaytarish bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi bilan bog‘liq axborotni kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda taqdim etishga Bankning haqli ekanligiga o‘z roziligini bildiradi.

2.7. Qarz oluvchi (karta egasi) ushbu bilan tasdiqlaydiki, Bank mobil telefon raqami o‘zgarganligi to‘g‘risida xabardor qilinmaguncha, Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan Bankka taqdim etilgan mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar bevosita Qarz oluvchi (karta egasi)ning o‘ziga yuborilgan hisoblanadi.

Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan SMS-xabarlarni olish sanasi Bank tomonidan mobil telefon raqamiga SMS-xabar yuborilgan sana hisoblanadi.

Bank uyali aloqa operatorining aybi bilan yoki Qarz oluvchi (karta egasi) tarmoq qamrovidan tashqarida bo‘lganda, uning telefoni o‘chirilgan, nosoz holatda bo‘lganda hamda shunga o‘xshash holatlarda SMS-xabarlarning yetkazib berilmasligi uchun javobgar bo‘lmaydi. Bunda SMS-xabar Bank tomonidan yuborilgan sanada Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi.

Qarz oluvchi (karta egasi) mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar bevosita Qarz oluvchi (karta egasi)ning o‘ziga yuborilgan deb hisoblanishini tasdiqlaydi.

2.8. Qarz oluvchi (Karta egasi) ushbu bilan Bank tegishli ma’lumotlarni Bank veb-saytida va/yoki “InFinBank” mobil ilovasida kamida 10 (o‘n) kalendar kuni oldin joylashtirish orqali Qarz oluvchi (Karta egasi)ni avvaldan xabardor qilgan holda quyidagilarni o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirishi mumkinligiga rozilik bildiradi (bundan moliyalashtirish shartlarini o‘zgartirish mustasno), jumladan:

- Ushbu ofertaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- Bank Tariflariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

Agar Qarz oluvchi (Karta egasi) o‘zgarishlarga rozi bo‘lmasa, u o‘zgarishlar kuchga kirgan sanagacha “Infin Smart” kartasidan foydalanishni to‘xtatish va o‘zgarishlar kiritilgunga qadar amalda bo‘lgan shartlarda kredit bo‘yicha qarzdorlikni to‘lash huquqiga ega.

O‘zgarishlar kuchga kirgan sanadan keyin “Infin Smart” kartasidan foydalanishni davom ettirish Qarz oluvchi (Karta egasi) ning yangilangan Tariflarga roziligi hisoblanadi.

3. TARAF-LARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

3.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

3.1.1. Qarz oluvchi (karta egasi)ning to‘lovga layoqatliligini tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlari muvaffaqiyatli o‘tkazilgan taqdirda, Qarz oluvchi (karta egasi)ga mazkur shartnoma tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida ruxsat etilgan miqdorda “Infin Smart” kartasiga limitni taqdim etish.

3.1.2. “Infin Smart” kartasi bo‘yicha mablag‘larni hisobga olish uchun tegishli hisobvaraqlarni ochish hamda kartani taqdim etish.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi (Karta egasi)ning moliyaviy ahvolini o‘rganish va Qarz oluvchi (Karta egasi) tomonidan o‘z zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish; Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi (Karta egasi) ning moliyaviy ahvolini o‘rganishni amalga oshirish, shu jumladan quyidagilardan foydalangan holda:

- ariza topshirishda va qarzga xizmat ko‘rsatish jarayonida bevosita Qarz oluvchi (Karta egasining) o‘zi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar;
- kredit byurolari, davlat axborot tizimlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa rasmiy manbalar ma’lumotlari;
- Qarz oluvchining (Karta egasining) Bankda ochilgan hisobvaraqlari va kartalari bo‘yicha operatsiyalari va to‘lov faolligini faqatgina kreditga layoqatliligini baholash hamda majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish maqsadida ichki tahlil qilish;

3.2.2. Undiruvni Qarz oluvchi (karta egasi)ning boshqa mulkiga qaratish;

3.2.3. Bank quyidagi holatlarda sud tartibida mazkur shartnomani bekor qilish hamda Qarz oluvchi (karta egasi)dan qarzdorlikni muddatidan oldin so‘ndirishni talab qilish huquqiga ega:

a) Qarz oluvchi (karta egasi) oylik to‘lovlarni to‘lash muddatini ikki yoki undan ortiq marta buzsa yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmasa;

b) Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi (karta egasi)ning moliyaviy va mulkiy ahvoli sezilarli darajada yomonlashsa;

c) Qarz oluvchi (karta egasi) qarz olish uchun Bankka “Infin Smart” kartasini berish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar bo‘yicha yolg‘on yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etgan bo‘lsa;

d) Mazkur Shartnoma va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.2.4. Qarz oluvchi (karta egasi) yoki uning amalga oshirayotgan operatsiyalari sanksiyalar ta’siri doirasiga tushgan taqdirda yoki bunday xavf mavjud bo‘lganda, Bank operatsiyani o‘rganish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rash, operatsiya miqdorini cheklash, xizmat ko‘rsatishni rad etish hamda ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

3.2.5. Bank mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini Qarz oluvchi (karta egasi)ning barcha banklarda ochilgan, karta hisobvaraqlarida hisobga olinadigan barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz va tortishuvsiz tartibda yechib olish huquqiga ega. Qarz oluvchi (karta egasi) ushbu bilan Bankka pul mablag‘larini yechib olish huquqini beradi hamda kelgusida bu borada hech qanday e’tiroz bildirmasligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan Qarz oluvchi (karta egasi) O‘zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan (ijtimoiy kartalar bundan mustasno) Bankka to‘lanishi lozim bo‘lgan summalarni Bank tomonidan avtomatik so‘ndirishga rozilik beradi hamda avtomatik so‘ndirishni amalga oshirish uchun Bankka topshiriq va vakolat beradi. Avtomatik so‘ndirish xizmati Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan qarz olingan paytdan boshlab Bank tomonidan faollashtiriladi, Qarz oluvchi (karta egasi) esa ushbu xizmatni Bankdan ixtiyoriy ravishda qabul qilishga roziligini bildiradi va tasdiqlaydi.

3.2.6. Bank Qarz oluvchi (karta egasi)ni lozim darajada tekshirish, uni identifikatsiya qilish va uning shaxsini tasdiqlash, bank operatsiyalari xavfsizligini ta’minlash, firibgarlik va boshqa ruxsatsiz xatti-harakatlarning oldini olish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish maqsadida Qarz oluvchi (karta egasi)ning Bankka murojaat qilish usulidan qat’i nazar, shu jumladan Qarz oluvchi (karta egasi) Bankka shaxsan murojaat qilgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan hollarda ham, biometrik identifikatsiyadan (Face ID) foydalangan holda Qarz oluvchi (karta egasi)ni qo‘shimcha tekshirishga haqli.

3.2.7. Qarz oluvchi (karta egasi) mazkur Ofertani akseptlash orqali Bank tomonidan uning identifikatsiya qilinishi, shaxsini tasdiqlash va qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkazish, shu jumladan biometrik identifikatsiya (Face ID) texnologiyasidan foydalangan holda tekshirish amalga oshirilishiga o‘z roziligini bildiradi. Mazkur rozilik «InfinSmart» kartasini taqdim etish va unga xizmat ko‘rsatish, bank operatsiyalarini amalga oshirish, bank xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek Qarz oluvchi (karta egasi) ning Bankka keyingi barcha murojaatlariga, murojaat qilish usuli va kanalidan qat’i nazar, shu jumladan Bankka shaxsan tashrif buyurish, mobil ilovadan va masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishning boshqa kanallaridan foydalanish holatlariga tatbiq etiladi.

Mazkur rozilik Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan ushbu Ofertani akseptlash orqali beriladi, ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida o‘z kuchida bo‘ladi hamda biometrik identifikatsiya (Face ID) har safar amalga oshirilganda Qarz oluvchi (karta egasi) dan alohida rozilik olishni talab etmaydi.

3.3. Qarz oluvchi (karta egasi) quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

3.3.1. “Infin Smart” kartasi bo‘yicha qarz summasini, shuningdek u bo‘yicha hisoblangan komissiyalarni mazkur Shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda quyidagi usullardan foydalangan holda qaytarish:

- kartadan kartaga pul o‘tkazish;
- Bank kassalari orqali naqd pul kiritish;
- boshqa hisobvaraqlardan pul o’tkazish orqali.

3.3.2. “Infin Smart” kartasidan foydalanganlik uchun Bankka mazkur Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda komissiya to‘lovlarini to‘lash.

3.3.3. Zarurat tug‘ilganda, Bankning so‘roviga binoan, Qarz oluvchi (karta egasi)ning moliyaviy va mulkiy holatini tasdiqlovchi har qanday hujjatni Bankdan tegishli so‘rov olingan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Bankka taqdim etish. Bunda hujjatlarga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar Bankka taqdim etilgan paytdan boshlab Bank uchun amal qiladi.

3.3.4. Familiyasi, ismi-sharifi, yashash joyi, ish joyi hamda telefon raqamlari o‘zgargan taqdirda, bunday o‘zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab 1 (bir) ish kuni ichida Bankka ushbu o‘zgarishlar haqida yozma ravishda xat yoki elektron axborot tizimlari orqali xabar berish.

3.3.5. Qarz oluvchi (karta egasi)ga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilganligi to‘g‘risida Bankni o‘z vaqtida yozma ravishda xabardor qilish, shuningdek Bankni xabardor qilmaslik yoki o‘z vaqtida xabardor qilmaslik natijasida yuzaga keladigan barcha salbiy oqibatlar xavfini o‘z zimmasiga olish.

3.3.6. Ushbu ofertaga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar to‘g‘risida o‘z vaqtida ma’lumot olish maqsadida muntazam ravishda (har 2 kalendar kunda kamida bir marta) mustaqil ravishda yoki ishonchli shaxslar orqali Bankning rasmiy veb-sayti va/yoki “InFinBank” mobil ilovasining tegishli bo‘limlariga kirib borish. Qarz oluvchi (karta egasi)ning ushbu ofertaga kiritilgan o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalar bilan o‘z vaqtida tanishmaganligi holati Bank tomonidan mazkur o‘zgartirishlar va/yoki qo‘shimchalarni qo‘llamaslik uchun asos bo‘la olmaydi.

3.4. Qarz oluvchining huquqlari:

3.4.1. “Infin Smart” kartasi bo‘yicha qarzdorlikni va hisoblangan komissiyalarni muddatidan oldin to‘liq miqdorda yoki qisman so‘ndirish;

3.4.2. Qarz oluvchi (karta egasi) mazkur Shartnoma tuzilganidan so‘ng va Qarz oluvchi (karta egasi) mazkur shartnoma bo‘yicha qarz olguniga qadar bepul asosda qarz olishdan voz kechish huquqiga ega, shuningdek qarzni muddatidan oldin istalgan vaqtda hisoblangan komissiya bilan birgalikda, biroq qo‘shimcha jarima to‘lamasdan, so‘ndirish huquqiga ega.

4. TARAF-LARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Qarz oluvchi (karta egasi) qarzni hamda u bo‘yicha hisoblangan komissiyalarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash, shuningdek qarzni undirish bo‘yicha sud xarajatlarini hamda Bankning Qarz oluvchi (karta egasi) o‘z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi oqibatida ko‘rgan boshqa zararlarini qoplash uchun Bank oldida o‘zining barcha mol-mulki bilan javob beradi.

4.2. Qarz oluvchi (karta egasi)ning qarz hamda komissiyani qaytarish bilan bog‘liq to‘lovlar bo‘yicha javobgarligi “Infin Smart” kartasi chiqarilishi bilan yuzaga keladi.

4.3. Bankning aybi bilan “Infin Smart” kartasi taqdim etilmagan yoki o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchi (karta egasi)ga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

4.4. Bank Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar va aloqa ma’lumotlarining o‘zgarishi to‘g‘risidagi xabarnomani o‘z vaqtida olmaslik natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

5. MAXFIYLIK.

5.1. Bank Qarz oluvchi (karta egasi)ning shaxsiy va daromadlariga oid ma’lumotlari, uning kredit tarixiga oid ma’lumotlari, karta aylanmalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek qarz berish

jarayonida Bankka ma’lum bo‘lib qolgan Qarz oluvchi (karta egasi) to‘g‘risidagi boshqa barcha ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi va ularning sir saqlanishini kafolatlaydi.

5.2. Qarz oluvchi (karta egasi) haqidagi, u tomonidan “Infin Smart” kartasidan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, sudlarga, sud ijrochilariga, kredit byurolariga, shuningdek boshqa vakolatli organlarga faqat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda taqdim etilishi mumkin.

6. NIZOLI HOLATLARNI HAL QILISH

6.1. Taraflarning mazkur Shartnomani bajarishi jarayonida yuzaga keladigan barcha nizoli holatlar Taraflar tomonidan o‘zaro maqbul yechimni ishlab chiqish maqsadida dastlab ko‘rib chiqilishi lozim.

6.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha hamda u bilan bog‘liq holda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar:

- yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Bank (agar qarz Bank filiali, Amaliyot boshqarmasi yoki Bank xizmatlari markazi tomonidan berilgan bo‘lsa, tegishlicha Bank filiali, Amaliyot boshqarmasi yoki Bank xizmatlari markazi) joylashgan manzil bo‘yicha sudda;
- yoki O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari huzuridagi hakamlik sudida;
- yoki O‘zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi va uning hududiy filiallari huzuridagi hakamlik sudida hal etiladi.

6.3. Qarz oluvchi (karta egasi) to‘lov qobiliyatini yo‘qotib, joriy qarzdorlik Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan taqdirda, qarzni undirish huquqi regress tartibida Sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladi.

6.4. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, Qarz oluvchi (Karta egasi) notariusning ijro xati asosida Bank tomonidan qarzdorlikni undirish imkoniyatiga rozi bo‘ladi. Ushbu shartnoma va u bo‘yicha majburiyatlar tomonlar tomonidan notarius ijro xatini yozish uchun yetarli asos sifatida e’tirof etiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning qisman yoki to‘liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday bajarilmaslik yoki qisman bajarilmaslik Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan hamda Taraflar mavjud choralar ko‘rgan taqdirda ham oldini olish imkoniyati bo‘lmagan, bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

7.2. Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar holatlari vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandagina fors-major holatlari deb hisoblanadi.

7.3. Agar mazkur holatlar uch oydan ortiq davom etsa, har bir Taraf Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holatda, Shartnoma bajarilmagan qismi bo‘yicha bekor qilinadi va Taraflar bajarilgan hamda bajarilmagan qismlar bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan qabul qilingan (akseptlangan) paytdan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Shartnoma “Infin Smart” kartasi bo‘yicha amal qilish davrida amal qiladi va to‘lovlar to‘liq so‘ndirilganidan so‘ng bekor qilinadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur Shartnomada belgilanmagan shartlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

9.2. Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Qarz oluvchi (karta egasi) Bankning o‘z faoliyatini amalga oshirishi, Bankning mazkur Shartnoma shartlarini bajarishi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlar uchun Qarz oluvchi (karta egasi)ning har qanday shaxsiy ma’lumotlari (shu jumladan biometrik) ga Bank tomonidan ishlov berilishi va ulardan foydalanilishi uchun Bankka mazkur shartnoma bekor qilingan sanadan boshlab 5 yillik muddatga rozilik beradi. Shuningdek, Qarz oluvchi (karta egasi) Bankka mazkur Shartnomani bajarish maqsadida o‘z shaxsiy ma’lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishiga rozilik beradi.

9.3. Qarz oluvchi (karta egasi) Bankdan ushbu Shartnoma shartlarining bajarilishi bo‘yicha eslatmalarni, Bank xizmatlarini targ‘ib qilish bilan bog‘liq reklama materiallarini barcha aloqa vositalari orqali, jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda pochta jo‘natmalari, SMS-jo‘natmalar, ovozli xabarlar, elektron pochta xabarlari va boshqa vositalardan foydalangan holda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatish orqali olishga rozilik beradi.

9.4. Qarz oluvchi (Karta egasi) mazkur Ofertani akseptlash orqali kredit axborotining foydalanuvchisi bo‘lgan Bankka O‘zbekiston Respublikasi kredit byurolari tomonidan Qarz oluvchi (Karta egasi) to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hajmdagi kredit axborotini o‘z ichiga olgan kredit hisobotini taqdim etilishiga o‘z roziligini beradi.

Ushbu rozilik asosida Bank Qarz oluvchi (Karta egasi) ning kreditga layoqatliligi, moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini baholash, kredit xavfini baholash, kredit limitini o‘zgartirish, shuningdek Qarz oluvchi (Karta egasi) tomonidan ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilish maqsadida har bir bunday so‘rovga Qarz oluvchi (Karta egasi) ning alohida roziligini olish zaruratisiz, arizani ko‘rib chiqish va mazkur Shartnomani tuzish paytida ham, ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida ham bir necha bor Qarz oluvchi (Karta egasi) to‘g‘risidagi kredit hisobotini so‘rash va olish huquqiga ega.

Ushbu rozilik mazkur Ofertani akseptlash orqali beriladi. Mazkur Ofertani akseptlash sanasi rozilik berilgan sana hisoblanadi. Rozilik ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida kuchda bo‘ladi.

9.5. Ushbu Shartnoma bo‘yicha xabarnomalar va e’tiroznomalar Qarz oluvchi (karta egasi)ga shaxsan, pochta orqali yoki elektron aloqa vositalari hamda boshqa kommunikatsiya kanallari orqali topshirilishi mumkin.

9.6. Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan masofaviy aloqa kanallari orqali amalga oshirilgan har qanday tasdiqlar bosma hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik ahamiyatga ega.

9.7. Qarz va u bo‘yicha komissiyalar Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda, Qarz oluvchi (karta egasi)ning kredit tarixida majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar shakllanadi va bu esa o‘z navbatida kelgusida Qarz oluvchi (karta egasi) tomonidan Bank hamda mikromoliya tashkilotlaridan qarz olish imkoniyatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Qarz oluvchi (Karta egasi)ning hayot sug‘urtasiga roziligi:

9.8. Mazkur Ofertani tasdiqlash (akseptlash) orqali Qarz oluvchi (Karta egasi) mazkur Shartnomani tuzish va bajarish munosabati bilan, “InFinBank” AJ va tegishli sug‘urta tashkiloti (Sug‘urtalovchi) o‘rtasida tuzilgan sug‘urta shartnomasi shartlari asosida Bank tomonidan o‘z hayotini sug‘urta qilishga ixtiyoriy ravishda va ongli tarzda o‘z roziligini bildiradi. Bunday sug‘urta qilishda Bank Naf oluvchi sifatida ishtirok etadi hamda sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda, tegishli sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda va miqdorda sug‘urta tovonini olish huquqiga ega bo‘ladi. Qarz oluvchi (Karta egasi) o‘z hayotini sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha Bankning Naf oluvchi etib tayinlanishiga o‘z roziligini tasdiqlaydi.

9.9. Sug‘urta shartnomasini tuzish, bajarish va unga xizmat ko‘rsatish, sug‘urta hodisalarini ko‘rib chiqish va tartibga solish hamda sug‘urta tovonini olish maqsadida Qarz oluvchi (Karta egasi) Bankka o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini qonunchilikda belgilangan tartibda va ko‘rsatilgan maqsadlar uchun zarur bo‘lgan hajmda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, foydalanish, Sug‘urtalovchiga taqdim etish (uzatish), shuningdek ularga boshqa tarzda ishlov berishga rozilik beradi.

9.10. Sug‘urta hodisasining holatlarini aniqlash uchun Qarz oluvchi (Karta egasi) ning sog‘lig‘i holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, tibbiy ma’lumotlar hamda unga taalluqli boshqa ma’lumotlarni olish va ularga ishlov berish zarur bo‘lgan hollarda, Qarz oluvchi (Karta egasi) sug‘urta hodisasini ko‘rib chiqish va tartibga solish uchun zarur bo‘lgan hajmda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etilgan holda, bunday ma’lumotlarga Bank va Sug‘urtalovchi tomonidan ishlov berilishiga hamda ularning Bankka va Sug‘urtalovchiga taqdim etilishiga (uzatilishiga) o‘z roziligini beradi.

9.11. Qarz oluvchi (Karta egasi) Bankning Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi sifatidagi huquqiy maqomi, o‘zining esa Sug‘urtalangan shaxs sifatidagi huquqiy maqomi unga tushunarli ekanligini, shuningdek sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta tovoni tegishli sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq Bankka to‘lanishini tasdiqlaydi.

9.12. Mazkur Ofertaning ushbu Shartnomada nazarda tutilgan usulda akseptlanishi bir vaqtning o‘zida Qarz oluvchining o‘z xohish-irodasini bildirganligini, yuqorida ko‘rsatilgan shartlarda o‘z hayotini sug‘urta qilishga, “InFinBank” AJni Naf oluvchi etib tayinlashga hamda sug‘urta qilish maqsadlarida shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishga roziligini tasdiqlaydi. Bank Qarz oluvchi (Karta egasi) tomonidan berilgan rozilikning mavjudligi, sanasi, vaqti va mazmunini tasdiqlash imkoniyatini ta’minlaydi.

№	Ko‘rsatiladigan xizmatlar	O‘rnatilgan tarif
1	Kartani chiqarish (dastlabki)	Bepul
2	Karta hisob raqamiga xizmat ko‘rsatilganlik uchun oylik abonent to‘lovi	Bepul
3	Kartani blokka tushirish va blokdan chiqarish	Bepul
4	3D Secure xizmatini yoqish	Bepul
5	SMS-xabarnoma xizmatini yoqish	Bepul
6	Mobil ilova orqali hisob raqam ko‘chirmalarini taqdim etish	Bepul

7	Kartani yetkazib berish xizmati	Bepul
8	InfinBank mobil ilovasi orqali kartani to‘ldirish	Bepul
9	Tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish	Bepul
10	Internet orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish	Bepul
11	Qarz ta’minoti uchun sug‘urtaga to‘lov	Bepul
12	Mobil ilova orqali o‘z hisob raqamiga yoki elektron hamyonga pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
13	Mobil ilova orqali valyuta sotib olish	Operatsiya mavjud emas
14	“InFinBank” AJda ochilgan Visa kartaga pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
15	Bir jismoniy shaxsning InFinSmart kartalari o‘rtasida pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
16	InFinSmart dan InfinBlack kartasiga pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
17	“InfinBank” da mavjud kreditlarni so‘ndirish	Operatsiya mavjud emas
18	Mobil ilova orqali tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish	Operatsiya mavjud emas
19	O‘zbekiston Respublikasida bankomatlardan naqd pul yechish	Operatsiya mavjud emas
20	O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida bankomatlardan naqd pul yechish	Operatsiya mavjud emas
21	“InFinBank” AJ kassasidan naqd pul yechish	Operatsiya mavjud emas
22	O‘zbekiston Respublikasi hududida boshqa Banklarda Uzcard terminali orqali kassadan naqd yechish	Operatsiya mavjud emas
23	O‘zbekiston Respublikasi hududida boshqa Banklarda HUMO terminali orqali kassadan naqd yechish	Operatsiya mavjud emas
24	O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida kassadan naqd yechish	Operatsiya mavjud emas
25	Mobil ilova orqali rekvizitlarga to‘lovni amalga oshirish	Operatsiya mavjud emas
26	Visa Direct orqali o‘tkazmalarni boshqa banklarning kartalariga amalga oshirish	Operatsiya mavjud emas
27	Kartadan Uzcard va HUMO kartalarga pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
28	“InFinBank” AJ da terminal orqali boshqa qartaga pul o‘tkazish	Operatsiya mavjud emas
29	“InFinBank” AJ da terminal orqali elektron hamyon yoki omonat hisob raqamga pul ko‘chirish	Operatsiya mavjud emas
30	Mijoz tomonidan xat orqali yozma va tasdiqlangan ma’lumotnoma so‘ralganda ma’lumot taqdim etilganligi uchun (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga ko‘ra bepul beriladigan ma’lumotnomalar bundan mustasno)	30 000 so‘m
31	Kartani qayta chiqarish	100 000 so‘m

32	Tranzaksiyalar bo‘yicha rasmiy arz qilish	Yuzaga kelgan barcha Bank xarajatlari mijoz tomonidan qoplanadi
33	InFinSmart kartasini mijozning boshqa kartalari yoki boshqa shaxslarning kartasidan o‘tkazma tarzida boshqa mobil ilovalar orqali to‘ldirish	Emitent Bankning yoki mobil ilovaning tarifiga muvofiq

KELISHILDI:

P.T. Salimov

_____ _____
F.I.O. imzo

H.G‘. Murodov

_____ _____
F.I.O. imzo

ISHLAB CHIQDI:

Chakana biznes departamenti direktori
Lavozimi

I.T. Usmanov
F.I.O.

imzo